

AMIR TEMUR AHLOQIY QARASHLARINING TARBIIYAVIY AHAMIYATI

Karimova N.R.

*“University of business and science”
nodavlat oliy ta’lim muassasasi v.b.dotsenti*

Ibroximjonovna Sh.B.

*“University of business and science”
nodavlat oliy ta’lim muassasasi magistranti*

Tayanch soʻzlar: adolat, ta’lim jarayoni, ma’naviy meros, insonparvarlik, el-yurt osoyishtaligi, “Temur tuzuklar”, “Dil ba yor-u, dast ba kor”, Kurashib erishilmagan gʻalaba, gʻalaba emas.

Ключевые слова: справедливость, образовательный процесс, духовное наследие, гуманизм, мир страны, «Проделки Темура». Победа, не достигнутая борьбой, не является победой.

Key words: justice, educational process, spiritual heritage, humanism, peace of the country, “Temur’s Tricks”. A victory not achieved through struggle is not a victory.

Amir Temur Ko’ragon ibn Amir Tarag’ay (1336-1406) ning ma’naviy-ahloqiy qarashlari xususida fikr yuritishdan oldin uning ana shu ta’limoti shakllanishining zaminlari, diniy-ahloqiy manba va ildizlari haqida aytib o’tishga to’g’ri keladi. Amir Temur ulug’ davlat arbobi bo’lish bilan birga zamonasining komilu fozil, benazir dahosi, Yaratganning nazari tushgan mislsiz qobiliyat va iste’dod egasi, ilm-fan va madaniyatning noyob sohibi edi. Buyuk bobokalonimiz yoshlik kezaridan boshlab Sharq tarixi va falsafasiga, adabiyot va san’atga, islom dini va uning odob-axloqqa oid muqaddas ta’limotiga iymon-e’tiqod bilan qaragan. U xandasa, falaqiyot, mantiq, ilohiyot, fiqh, falsafa, tarix, axloqshunoslik, jug’rofiya, tibbiyot, adabiyot va san’at ilmlarini teran o’zlashtirgan. Zamonasining rasmiy uch tili, — turkcha, forscha va arabchani chuqur va mukammal bilgan. Temurning shijoatli ruhida ilm va ilm axliga hurmatu e’zozli favqulodda kuchli bo’lgan. «Tarag’ay Bahodir o’g’li Amir Temur yoshlik chog’idan mard, dovyurak, g’ururli, o’tkir zehn va aqlu idrok egasi bo’lib o’sdi. Turli dunyoviy ilmlarni,



harbiy san'atni egalladi. Qur'oni Karimni yod oldi, hadis ilmini o'rgandi. Imon-e'tiqodli, halolpok inson bo'lib etishdi» Amir Temur naqshbandiya tariqatining asoschisi Xoja Baxouddin va u yaratgan ta'limotga ixlos-e'tiqodi nihoyatda kuchli bo'lgan.

Amir Temur – buyuk davlat arbobigina emas, kuragi yer ko'rmagan sarkada, qonunshunos, ruxshunos, notiq, iste'dotli me'mor va adolat ustiga barpo etilgan yurt asoschisi bo'lganligi barchamizga ma'lum. U 7 yoshidan ilm olishni boshlaydi. Yosh bo'lishiga qaramay uning ilmga muhabbati va o'tkir zehni ta'lim jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. O'rgangan bilimlari ostida halol, pok, aql-zakovatli, e'tiqodi mustahkam, adolatlatli inson bo'lib yetishadi. Amir Temur yovuzlikni, johillikni, zo'raonlikni hushlamas, adolat va insonparvarlikni ulug'lar edi. Uning tarix zarvaraqlariga oltin harflar bilan bitgan “Kuch adolatdadir” degan hikmatli gapi bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Shu o'rinda takidlash joizki, uning jahonga mashhur nodir asari bo'lmish “Temur tuzuklari” kitobida ham bu g'oyalar ilgari surilgan. Asarda nafaqat jang san'ati, mamlakatni qanday boshqarish yoriqnomasi balkim odob-axloq me'yorlari, yoshlarni ma'naviyatga boshlovchi g'oyalar keng yoritilib berilgan. Taniqli olim Bo'riboy Ahmedov “Temur tuzuklari” podshohlarning turish-turmush va odob-axloq normalarini belgilab beruvchi risoladir, deb tariflaydi. Amir Temur jang-u jadallikda kechgan umri davomida yosh avlodga turmush odobi, hulq-odob qoidalari, ma'naviyat-madaniyat haqida takrorlanmas o'gitlar meros qilib qoldirgan va bu o'gitlarni pedagogika jarayonida qo'llash ta'limda ko'zlangan maqsadga yo'l ochadi.

Amir Temurning ma'naviy merosida insonparvarlik, adolatlilik, mehnatsevarlik, vatanga sadoqat, to'g'rilik, do'stlikhamkorlik, mehr-muruvvat ko'rsatish, yaxshilik, sabr-qanoat kabi xislatlar ulug'lanib, xiyonat, bevafoqlik, sotqinlik, yolg'onchilik qoralanadi. Hayotda “rosti-rusti” qoidasiga rioya etgan Amir Temurning o'zi naqshbandiylik tariqatidagi “Dil ba yoru, dast ba kor” tamoyiliga ko'ra ish tutib, Yusuf Xos Hojib, Abu Nasr Farobiy, Jaloliddin Davoniy va boshqalar tomonidan targ'ib etilgan va haqiqiy komil inson, adolatli hukmdor uchun zarur bo'lgan quydagi o'n ikki qoidani o'ziga yo'riq qilib olganini ko'ramiz:

1. Har yerda va har vaqtda Islom dinini quvvatlash;
2. Davlat va saltanatni boshqarishda o'n ikki tabaqa;
3. Toifadagi kishilarga tayanish;
4. Dushman bilan kurashda maslahat;
5. Kengash;
6. Tadbirkorlik bilan ish ko'rish;

7. Faolik;
8. Hushyorlik ko‘rsatish;
9. Ehtiyotkorlik ko‘rsatish;
10. Saltanat ishini yurgizishda murosayu madora;
11. Muruvvat bilan ish ko‘rish;
12. Sabr-toqat bilan ish ko‘rish.

Amir Temur hayoti va faoliyati davomida o‘zi qat’iy rioya etgan, haqiqiy yetuklik belgisi sanalgan din, imon, aql bilan ish ko‘rish va ilmga e’tiqod ruhda tarbiyalashga kata e’tibor qaratgan. Quyida uning shu mazundagi xalq orasida keng tarqalgan o‘gitlarini misol keltirishimiz mumkin:

1. Yaxshi odam yurt tuzar, yomon odam yurt buzar.
2. Shijoatli odamni do‘st tut, chunki Alloh jasur kishilarni ardoqlaydi.
3. Ulamo bilan suhbatda bo‘l va pok niyyatli, toza qalbli kishilarga talpin. Bularning hikmatlaridan ulush tilanib, muborak nafaslarini bilan duo-fotiha berishlarini iltimos qil.
4. Bir tayoqni sindirish mumkin, ko‘p tayoqni bukolmaysan ham.
5. Og‘zing to‘la qon b‘lsa ham, dushman oldida tupurma.

Amir Temur zamonida musiqa, badiiy adabiyot, rassomlik sa’nati rivoj topib, yoshlarga she’r yozish, rasm chizish, musiqa asboblarini chalish, kitobxonlik, lison ilmi, husniyat o‘rgatilgan. Sohibqironing buyuk saltanatida ijod qilgan shoirlar, rassomlar, mashshoqlar va boshqalar buning yaqqol dalilidir. Bu davrda katta shaxar hunarmandlari hamda ashula, raqs, suxandonlik bilan shug‘ullanganlari haqida Sharafiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida qayd etilgan. Sohibqiron bobomiz o‘zining hayoti tamoyillari haqida shunday degan: “Men o‘z hayotim mobaynida besh narsaga qat’iy e’tiqod qo‘ydim va hamishalig‘ ularga amal qildim, ular ushbulardir: Alloh – ul har narsaga qodir kuch, sidqidildan sig‘insang, istagan murod-u maqsadingga yetkazadi;

Tafakkur- fikrlash va mushohada qobilyati;

Qilich – ul yigitning yo‘ldoshi, el-yurt osoyishtaligining posponi, har qanday dushmanning mahv etish quroli, aning qudrati ila dinsizlarni dinga solmoq mumkin; Imon – ul insonni barcha jonlilardan farqlantirib turuvchi xususiyatdir. Imonli odam xiyonat qilmaydi, qarindosh-urug‘lari, el-yurtning or-nomusini himoya qiladi, halollik va pokizalikni fazilat biladi; Kitob (bitik) – barcha bunyodkorlik, yaratuvchanlik va aql-zakovatning, ilm-u donishmandlikning asosidir; hayotni o‘rgatuvchi murabbiydir. Buyuk jahongirning islom diniga munosabati va tasavvuf ahliga e’tiqodi uning «Tuzuklar» va unga nisbat berilgan «Tarjimai hol» deb nomlangan asarlarida, Nizomiddin Shomiy, Sharofiddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”, Ibn Arabshohning “Amir Temur tarixi” kitoblari va boshqa ilmiy



manbalarda o'z ifodasini topgan. «Yana tajribamda ko'rib bildimki,-deydi Amir Temur davlat agar dinu oyin asosida qurilmas ekan, to'ra-tuzukka bog'lanmas ekan, unday saltanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo'qoladi. Bunday saltanat yalang'och odamga o'xsharkim, uni ko'rgan har kimsa, nazarini olib qochadi. Yoxud kasu nokas tap tortmay kirib chiqadigan tomsiz, eshigito'sig'i yo'q uyga o'xshaydi. Shuning uchun men o'z saltanatim binosini dini islom, to'ra va tuzuk asosida mustahkamladim... O'z saltanatimni shariat bilan bezadim».

Amir Temur sayyidlarga mehribonlik qilib, ularni o'ziga yaqin tutgan. Ulamo va fozillarga izzat-ikrom ko'rsatib, ularni boshqalardan ustun va ulug', deb bilgan. Diniy arboblar, ulamo va shayxlar bilan mazmunli bahslar yuritgan, martabalarini har doim oshirib, sovg'a-salomlar in'om etib turgan. «Musulmonlarga diniy masalalardan ta'lim berib, shariat aqidalari va islom dini ilmlari: tafsir, hadis, fiqhdan dars bersinlar deb, har bir shaharga olimlar va mudarrislar tayin qildim. Turli mamlakatlardagi sadrlar va qozilarga shariatning asosiy talablari qanday bajarilayotganligi xususida menga xabar qilib turishni buyurdim. Shunga o'xshash har el va har shaharda sipoh va raiyat orasida urf-odatlariga oid janjallashishlar haqida menga ma'lumot berib tursin, deb adolat amrini tayinladim. Shu tariqa dinni rivojlantirib, shariatni musulmon mamlakatlariga yoydim»,- deydi buyuk sarkarda.

Amir Temur Sharqona an'analarga sodiq qolib, vaqti-vaqti bilan olimlar, faylasuflar, hokimlar, tabiblar, munajjimlar, muhaddislar, amirlar, vazirlar, dongdor san'at namoyondalari, turfa kasb-hunar egalari bilan kengashib, ularning maslahatini olib ish yuritgan. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asarida Eron imomlarining ulug'lari va Turon sohibi ixtiyorlarining fozillaridan bo'lmish nomdor ulamolar va fozilu fuzalolar bilan Amir Temur o'tkazgan kengash haqida hikoya qilingan. Unda Amir Temur, "o'tgan asrlardagi ulamolar sultonlarga yaxshilik va adolat bobida yo'l ko'rsatganlar, sizlar esa menga rahnomolik qilmaysizlar va men bajarishim vojib va lozim bo'lgan narsalarni menga aytmaysizlar... Menga tahsin aytish va mening mijozimga muvofiq gapirishingiz menga xush kelmaydi, vazifa shuki, sizlar har toifa har tomondan kelgansizlar, u tomonning yaxshi ham yomon ahvolu avzoyini menga aytinglar va hech nimani mendan yashirmanglar. Men bu so'zni sizlar menga ishonch bildiringlar yoki undan mening mulkimga biror foyda etsin, deb aytayotganim yo'q", deydi. Ana shu fikrlarning o'zi ham Amir Temur o'z davlatini faqat harbiy kuchga suyanib emas, balki aql-zakovat, dinu diyonat, ijtimoiy adolat qoidalariga asoslanib idora etganligini isbotlab turibdi. "Adolat kuchda emas, kuch-adolatdadir," degan shior Amir Temur saltanatining ilmiy-falsafiy, axloqiy-ma'naviy mezoni bo'lib xizmat qilgan.

Ushbu dalillar Amir Temurning dunyoqarashi, din, odob-axloq, madaniyat, ma'naviyat, ma'rifat haqidagi fikr va mulohazalari zaminsiz paydo bo'lmaganligidan dalolat beradi. Shaxsan Amir Temurning o'zi odob-axloq, iymon-e'tiqod, ta'lim-tarbiya, madaniyat, ma'naviyat va ma'rifat bobida yuksaklikka, mukammallikka erishgan siymolardan biridir. Uning saltanati yuksak ma'naviyat va oliy darajadagi madaniyatga yo'g'rilgan saltanat edi. Ma'naviyat va ma'rifat, din, odob-axloq haqidagi Amir Temur ta'limotining mohiyatini chuqur va mukammalroq bilib olish uchun uning o'zlari tomonidan yaratilgan odob-axloqqa oid dasturlar, pand-nasihatlarni hamda boshqa olimlarning u hakda yozgan asarlarini ko'zdan kechirish kifoyadir. "Temur tuzuklari", "Amir Temur o'g'itlari", "Amir Temur vasiyati", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Ibn Arabshohning "Amir Temur tarixi", Salohiddin Toshkandiyning "Temurnoma", B.Ahmedovning "Tarihdan saboqlar" va "Amir Temur", Evgeniy Berezikovning "Buyuk Temur", Ashraf Ahmedovning sohibqiron tarjimai holiga oid asarlari va boshqalar shular jumlasidandir. Sohibqironning ma'naviyat va ma'rifat haqidagi ta'limoti asoslari, murakkab va serqirra hayoti va ijgimoiy-siyosiy faoliyati uning "Tarjimai holi" da va "Tuzuklari" da chuqur bayon etilgan. Amir Temurning insonparvarligi, millatsevarligi, ma'naviyat va ma'rifatning jonkuyar homiysi sifatidagi insoniy fazilatlarini uning farzandlariga qoldirgan vasiyat so'zlarida yaqqolroq namoyon etilgan: "O'g'illarim, millatning ulug' martaba-sini, saodatini saqlamoq uchun Sizlarga qoldirayotgan vasiyat va "Tuzuklar" imni yaxshi o'qing, aslo unutmang va tatbiq eting. Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangiz. Zaiflarni qo'ring, yo'qsillarni boylar zulmiga tashlamang. Adolat va Ozodlik dasturingiz, rahbaringiz o'lsin. Men kabi uzun saltanat surmak istasangiz qilichingizni yaxshi o'ylab chekingaz. Bir daf'a chekkanda so'ngrada uni ustalikla qo'llangiz. Orangizda nifoq tuxumlari ekilmasligi uchun ko'p diqqat bo'ling. Ba'zi nodimlaringiz va dushmanlaringiz nifoq tuxumlari sochmakka, bundan foydalanmakka chalishajaqdurlar. Faqat vasiyatimda sizga idora shaklini, uning ilkularini ko'rsatdim. Bularga sodiq qolsangaz tosh boshingizga tushmas". Amir Temurning farzandlari-yu nabiralari qilgan o'g'itlari va yo'l-yo'riqlariga uning o'zi umrbod qat'iy amal qilgan. Jamiyatda ijtimoiy adolat tantanasi uchun kurashda ikkilanish, chekinish nimaligini aslo bilmagan. U kuch-qudrat zo'rlik, zo'ravonlikda emas, aksincha, adolatda ekanini chuqur anglab etdi. Adolatni kuch bilan, kuchni esa adolat bilan uyg'unlashtirdi. Temur tamg'asining naqshi "Rostirusti" bo'lib, bu "Haqqo'y bo'lsang – najot topasan", demaقدir. Sohibqiron "Kuch-adolatdadir", degan shiorga qat'iy amal qilib, davlatni boshqargan, jabr-sitam yo'lini berkitgan. O'z davrida hech bir davlatda bo'lmagan va tarihdan kamdan-kam uchraydigan lavozim — "Adolat amiri" lavozimini ta'asis etgan.



Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Amir Temurning ibratli, hayotiy pand nasixatlari va o'gitlarining har biri ma'no-mazmun kengligi, mantiqning kuchliligi, teranligi, ta'siri, umuminsoniy qadriyatlar asosiga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi va ularni bitmas-tuganmas xazina, odob-axloqqa oid dasturlar deya olamiz. Bu o'gitlar sohibqironning juda mashaqqatli va sertashvish, goh muvaffaqqiyatli, goh muvaffiqiyatsiz, goh quvonchli, goho anduhli umrining ijodiy mevasi hamda xalqni bir maqsad yo'lida birlashtirgan, jipslashtirgan sehrli va tarbiyaviy kuchga ega bo'lgan durdona merosdir.

Adabiyotlar:

1. "Temur tuzuklari" [forschadan Alixonto'ra Sog'univ va Habibulla Karomatov tarjimas], 1991, 1996;
2. "Temur tuzuklari" ni O'zbekistonda o'rganish muommolari [Temuriylar davri madaniy yodgorliklari], 2003
3. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" "Davlat ilmiy nashiryoti" Toshkent 2011.
4. Karimova, N. (2020). Innovative educational technologies at the university: innovative portfolio technology. *Theoretical & Applied Science*, (10), 352-356.
5. Karimova, N. (2020). Pedagogical potential of the foreign language discipline in higher education for developing soft skills of students. *Theoretical & Applied Science*, (2), 347-349.

РЕЗЮМЕ

Ushbu maqolaning mazmun-mohiyati quyidagicha, Sohibqiron bobomiz Amir Temur ma'naviy me'rosi haqida ta'lim jarayonida o'quvchiga tushuncha berish, o'gitlar tub ma'nosini o'rgatish haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ

Суть данной статьи заключается в том, чтобы в процессе обучения дать ученику представление о духовном наследии нашего прадеда Амира Темура, донести до него первоначальный смысл учения.

SUMMARY

The essence of this article is to give the student, during the learning process, an idea of the spiritual heritage of our great-grandfather Amir Temur, to convey to him the original meaning of the teaching.